



IQTISODIYOT VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA

Onlayn ilmiy jurnal

Jild: 02 Nashr: 08 (2023)

www.mudarrisziyo.uz

ISSN: 2992-8907



RAQAMLI IQTISODIYOT VA XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA

Ro‘zimatova Shaxlo Baltaboy qizi

*Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o‘qtuvchisi, Toshkent,
O‘zbekiston*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya, xalqaro iqtisodiy integratsiya hamda ushbu iqtisodiyotni rivojlantirishda xorij tajribasi haqida ma’lumotlar keltirilgan va ular asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** integratsiya, raqamli iqtisodiyot, xalqaro iqtisodiy integratsiya, raqamlashtirish, intellektual hukumat, iqtisodiy xavfsizlik.*

KIRISH

Hozirgi kunda barcha mamlakatlarda raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Raqamli iqtisodiyotni soddaroq tilda tushuntiradigan bo‘lsak, avvallari biror kiyim-kechak kerak bo‘lsa darrov bozorga yugurar edik. Hozir esa telegram, instagram yoki bo‘lmasa boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zingizga yoqqan libosni uyda o‘tirib ham buyurtma qilishingiz mumkin. Ular esa buyurtmangizni eshingingiz tagigacha yetkazib berishlari va siz esa uni ortiqcha vaqt sarflamagan holda onsogina harid qilishingiz mumkin. Mana shuni raqamli iqtisodiyotni soddagina tildagi tushunchasi desak ham bo‘ladi. Endi xalqaro raqamli integratsiyaga ta’rif beradigan bo‘lsak, avval integratsiya nima ekanligini tushunib olishimiz darkor.

Integratsiya – bu hududiy miqyosda sifat jihatidan yangi muhitni yaratish yo‘li orqali milliy xo‘jalik komplekslarining o‘zaro yaqinlashishi va bir-biriga kirib borish jarayonidir [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoniga muvofiq, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlash, aholi punktlarini Internet tarmog‘iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 milliongacha ko‘paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish [2] va boshqa bir qator vazifalar yuzasidan mas’ul xodimlarga belgilangan vazifalar topshirildi. Bu esa mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga berilayotgan katta e’tibordan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Raqamli” iqtisodiyot bu - gibriddunyo sharoitlarida mavjud bo‘ladigan iqtisodiyotdir. “Raqamli” (elektron) iqtisodiyot bu - axborot, jumladan, personal axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uning o‘ziga xos hususiyati bo‘lgan iqtisodiyotdir [3].

Servis biznesi “default” raqamli biznesga aylanmoqda. Bir tomondan, hech kim fotobiznesda bir paytlar plyonkadan “raqam”ga sakrab o‘tish vaqtini o‘tkazib yuborgan Kodak qismatini takrorlashni istamaydi. Boshqa tomondan, Amazon, Uber, Air BnB va boshqalar raqamli inqilobdan qanday qilib foydalanish - biznes yuritishning tamomila yangicha sxemalarini o‘ylab topish va amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Internet dastlab onlayn-vitrina kabi, keyinroq esa onlayn-magazin rovida oflayn-biznesga qo‘shimcha sifatida ko‘rib chiqilgan vaqtlar o‘tib ketdi. Hayot saxnasiga yangi avlodlar - internetda tarmog‘ida “yashaydigan” yoshlar chiqib kelishi biznesni onlayn (“raqamli”) bo‘lishga, birinchi navbatda, default majbur qiladi [4].

Raqamli iqtisodiyot deyarli hamma narsaga oid juda katta miqdordagi mashina o‘qishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni (raqamli ma’lumotlar) to‘plash, foydalanish va tahlil qilish qobiliyatiga asoslangan holda katta tezlikda rivojlanishda davom etmoqda. Masalan, Global Internet Protokol (IP) trafigi, ma’lumotlar oqimi uchun proksi 1992-yilda kuniga 100 gigabaytdan (GB) 2017- yilda sekundiga 45000 Gb dan oshdi va dunyo faqat ma’lumotlarga asoslangan iqtisodiyotning dastlabki kunlaridadir. Shu yo‘sinda 2022-yilga kelib global IP trafik sekundiga 150,700 Gbaytga yetkazilishi prognoz qilinmoqda [5].

Raqamli iqtisodiyot uchta segmentda ko‘rib chiqiladi (ya’ni qayerda rivojlanadi):

- ✓ real tovarlar va xizmatlar ta’minotchilari va xaridorlari sektori;
- ✓ dasturiy ta’minot va texnologiyalar ishlab chiquvchilar sektori;
- ✓ qonunchilik bazasi, kadrlar tayyorlash tizimi, barcha turdagi ma’lumotlar uzatish va saqlash kanallari ko‘rinishidagi infratuzilma.

Quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi (ya’ni nima rivojlantiriladi):

- ✓ Big data;
- ✓ sun’iy intellekt;
- ✓ blokcheyn;
- ✓ kvant texnologiyalari;
- ✓ ishlab chiqarish texnologiyalari;
- ✓ sanoat interneta;
- ✓ robototexnika;
- ✓ simsiz aloqa;
- ✓ virtual reallik.

S.R.Palatnikning so‘zlariga ko‘ra, raqamli tizim “haqiqatning yagona uzluksiz versiyasi”dir, chunki uning asosidagi texnologiya quyidagilarni ta’minlashga imkon beradi:

- ✓ ma’lumotlarning aniqligi;

- ✓ ishonchliligi;
- ✓ haqiqiyliги [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola xorijiy mualliflarning ilmiy asarlarini fundamental, izchil va bosqichma-bosqich o'rganishni, shuningdek ilmiy tadqiqotning umumiy ilmiy va maxsus usullaridan foydalangan holda normativ-huquqiy, statistik, axborot-ma'lumot, uslubiy va davriy adabiyotlar: tizimli yondashuv, rasmiy mantiq, qiyosiy tahlil usullari hamda tasniflash orqali ma'lumotlarni to'plashni talab etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geografik jihatdan, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi juda notekis. Hozirgi vaqtda dunyo raqamli iqtisodiyotga o'tmagan va giperraqamli mamlakatlar o'rtasidagi keskin farq bilan ajralib turadi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda har besh kishidan to'rttasi, kam rivojlangan mamlakatlarda esa har besh kishidan bittasi Internetdan foydalanadi.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy geografiyasi Shimol va Janub o'rtasidagi an'anaviy farqni ko'rsatmaydi. Uni rivojlangan va izchil rivojlanayotgan – AQSh va Xitoy boshqarib kelmoqda. Masalan, ushbu ikki mamlakat blokchayn texnologiyalari bilan bog'liq barcha patentlarning 75 foizi, narsalar Interneti (internet of things - IoT)ga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va umumfoydalanishdagi bulutli texnologiyalar dunyo bozorining 75 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Va, eng ajablanarlisi, ular dunyodagi 70 ta eng yirik raqamli platformalar bozor kapitallashuv qiymatining 90 foizini tashkil etadi. Yevropaning ulushi 4 foiz, Afrika va Lotin Amerikasini esa atigi 1 foiz [7].

Agar AQSH strategiyasini batafsilroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotni tashkil qilish jarayonini 4 blokka ajratish mumkinligi ma'lum bo'ladi:

1. raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitlarini yaratish (normativ-huquqiy baza);
2. eng tayyorlangan sanoatlarda raqamli iqtisodiyot platformalari vujudga kelishi;
3. platformalarning raqobat kurashi va ularning asta-sekinlik bilan integratsiyalashuvi;
4. eng omadli yechimlarni butun iqtisodiyotga joriy qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotda inson faoliyatining asosiy sohalari samarali rivojlanishining muhim sharti mos keluvchi institutsional muhit shakllantirish hisoblanadi. Buning uchun esa kadrlar malakasini oshirish, IT sohasida yetuk mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy malakali mutaxassislarni o'quv jarayonlariga jalb etish va savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- raqamli iqtisodiyot kadrlari tayyorlash uchun asosiy sharoitlar yaratish;
- raqamli iqtisodiyotni chuqur bilimga ega kadrlar bilan ta'minlashi lozim bo'lgan ta'lim tizimini takomillashtirish;
- raqamli iqtisodiyot talablariga tayanishi lozim bo'lgan mehnat bozori;
- zarur chuqur bilimga ega bo'lish va kadrlarning O'zbekiston raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ishtirokini motivatsiyalash tizimini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://www.coursehero.com/file/123657180/Xalqaro-iqtisodiy-integratsiyaning-mazmun-va-mohiyatidocx/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 5-oktyabrdagi** “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni// <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. Абдуллаев О.М. ва б. Рақамли иқтисодиёт. Ўқув.қўл. 2020 й.
4. Бородай В.А. Предпосылки устойчивого развития бизнеса в турбулентной среде // В сборнике: Регулирование экономической деятельности и деловая среда: проблемы, перспективы и решения Сборник научных трудов по материалам II Международной научно-практической конференции. 2017. С. 332-341.12
5. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). Digital economy report 2019
6. Metz C. Why Wall Street is embracing the blockchain—Its biggest threat. URL:<https://www.wired.com/2016/02/wall-street-is-embracing-theblockchain-its-biggest-threat/> (дата обращения: 05.02.2020).
7. Digital 2019: global digital overview. Value creation and capture: implications for developing countries. UNCTAD, 2020.